Kreditning to‘liq qiymati (KTQ): ____% (_____foiz)

IPOTEKA KREDIT SHARTNOMASI

_____ №_____ _____

(manzil) (sana)

Bir tomondan «Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki nomidan harakat qiluvchi bankning _____filiali bundan buyon, matnda “Bank” deb yuritiladi, nomidan _____ sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko‘rsatuvchi_____

(lavozimi,F.I.SH.)

va ikkinchi tomondan fuqaro_____(bundan buyon matnda “Qarz oluvchi” deb yuritiladi) shuningdek,

1._____,

(birgalikda qarz oluvchilarning F.I.SH.)

“birgalikda qarz oluvchi” deb yuritiluvchilar, ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Ushbu shartnoma quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

-qarz oluvchi – birlamchi va ikkilamchi bozordan uy-joy/xonadon sotib olish uchun kredit olgan va kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyati olgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

-birgalikda qarz oluvchilar – 18 yoshga to‘lgan va 60 yoshdan oshmagan, qarz oluvchining ipoteka krediti asosiy summasi va kredit bo‘yicha foizlarning har oydagi to‘lovlarida qatnashadigan, shuningdek ipoteka krediti bo‘yicha solidar javob beradigan jismoniy shaxslar;

-boshlang‘ich badal – ariza beruvchining sotib olinadigan uy-joy/xonadon qiymatining qisman to‘lovi hisoblanuvchi, qarz oluvchi tomonidan Bankka topshirilgan pul mablag‘lari;

-qarz yuki ko‘rsatkichi – qarz oluvchining barcha kreditlari va mikroqarzlari bo‘yicha o‘rtacha oylik to‘lovlari miqdorining qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning tasdiqlangan o‘rtacha oylik daromadi miqdoriga bo‘lgan nisbati;

-birlamchi uy-joy bozori – yangi tartib doirasida qurilgan, shuningdek yangi tartib doirasidan tashqari foydalanishga topshirilgan sanadan ko‘pi bilan ikki yildan

oshmagan pudrat tashkiloti hisobida bo‘lgan uy-joy/xonadonlarni taklif etuvchi bozor;

-ikkilamchi uy-joy bozori – avval qurilgan, shuningdek ikkilamchi bozor tarkibiga egasi bo‘lgan har qanday uy-joy/xonadon kiradi. Bunda uy egasi shu uyda yashashi yoki yashamasligi muhim emas. Uy-joy foydalanishga topshirilish va uy egasining mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish bilan uy-joy/xonadon avtomatik ravishda ikkilamchi uy-joy fondiga o‘tkaziladi va bu holda sotuvchi bo‘lib bevosita uy egasi – jismoniy shaxs hisoblanadi.

-uy-joyning hisoblangan qiymati – uy-joy/xonadon bir kvadrat metrining tegishli hududdagi o‘rtacha bozor qiymati hamda ikki va uch xonali uy-joy/xonadonlar maydonining eng kam me’yorlarini inobatga olgan holda aniqlanadigan qiymat;

-pudrat tashkiloti – uy-joy/xonadon o‘z mablag‘lari, bank krediti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga qurgan hamda birlamchi uy-joy bozorida uy-joy/xonadonlarni sotish uchun taklif etuvchi tadbirkorlik subekti;

-subsidiya – ipoteka kreditlari asosida xonadon sotib olish uchun boshlang‘ich badal va/yoki kredit foizli xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida davlat byudjetidan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi uchun bankda uning nomiga ochilgan tegishli hisobvarag‘iga o‘tkazilgan pul mablag‘lari;

-imtiyozli davr – kredit bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilgan davr;

-kredit foizi – kreditdan foydalanganlik uchun to‘lov;

-kredit bo‘yicha qarzdorlik – qarz oluvchi nomiga ochilgan tegishli hisob-raqamlarda hisobi yuritilayotgan kreditning hammasi yoxud qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan kreditining qoldig‘i, kreditdan foydalanilganlik uchun hisoblangan foizlar;

-kredit bo‘yicha ta’minot – kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/xonadon garovi;

-kredit berilgan sana – qarz oluvchining ssuda hisob varag‘idan tegishli kredit summasini uy-joy/xonadon sotuvchisiga ochilgan hisob varaqqa o‘tkazilgan sana;

-kreditni qaytarish sanasi – ushbu shartnomadan kelib chiqib, ipoteka krediti bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarning va asosiy qarz qoldig‘ini qoplaydigan, qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajarishiga olib keladigan oxirgi to‘lov sanasi;

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1.Bank Qarz oluvchiga _____ni
(sotib olinayotgan uy-joy/xonadonning to‘liq manzili)
(keyingi o‘rinlarda uy-joy/xonadon deb ataladi) sotuvchi _____dan sotib olish uchun ushbu shartnomada nazarda
(sotuvchi nomi)

tutilgan shartlarda_____(_____) so‘m miqdorida pul o‘tkazish yo‘li bilan ipoteka krediti ajratish majburiyatini oladi, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) esa olingan kreditni belgilangan muddatda, kredit mablag‘laridan foydalanganlik uchun foiz, komission va boshqa to‘lovlarni to‘lagan holda qaytarish majburiyatini oladi.

2.2. Kreditni qaytarish muddati: “__”_____ _____ yilga qadar.

2.3. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz miqdori: yillik _____ (_____) foiz. Foiz stavkasi turi — _____ (o‘zgaruvchi/o‘zgarmas).

2.3.1. Kreditning to‘liq qiymati (KTQ) qonunchilikda belgilangan tartibda kredit bo‘yicha to‘lovlar va KTQ hisob-kitobiga kiritilishi lozim bo‘lgan boshqa xarajatlarni inobatga olgan holda hisoblanadi va shartnomaning birinchi sahifasida ko‘rsatiladi. Sug‘urta, garovni rasmiylashtirish va baholash bilan bog‘liq qonunchilikda KTQ tarkibiga kiritilishi lozim bo‘lgan xarajatlar mavjud bo‘lsa, ular ham hisobga olinadi.

2.4. Tijorat banklarining ipoteka kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari pasaytirilganda, foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun to‘lanadigan subsidiya miqdori ushbu sanadan boshlab mutanosib ravishda kamayadi.*(Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan ipoteka krediti ajratilganda – foiz stavka O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi).*

2.5.Bank kredit mablag‘larini kreditlashning ***qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik, maqsadga muvofiqlik*** tamoyillariga rioya qilgan holda ajratadi.

3. QARZ OLUVCHI VA/YOKI BIRGALIKDA QARZ OLUVCHINING KAFOLATI

3.1.Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Bankka taqdim etiladigan hujjatlar haqiqiy va ishonchliligini;
- Birgalikda qarz oluvchi ushbu shartnoma majburiyatlari yuzasidan birgalikda javob berishini va ushbu majburiyatlar haqiqiyligini;
- Qarz oluvchining (Birgalikda qarz oluvchining) ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning ushbu shartnomaga va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘lishi haqida ogohlantirilganligini;
- Qarz oluvchi unga bank tomonidan ajratilayotgan kredit to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Kredit axborotlari milliy instituti(KAMI)ga, Kredit axborotlari tahlil markazi (KATM) kredit byurosiga hamda garov, uning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Garov reyestri DUK va va boshqa axborot tahlil markazlariga taqdim etilishiga o‘z roziligini beradi.

3.2.Agar qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi to‘lovlarni amalga oshirishga yoki ushbu shartnomada belgilangan talablardan istalganini bajarishga qodir bo‘lmasa hamda taqdim etilgan ma’lumotlar haqiqiy emas deb topilganda bank kreditni, hisoblab yozilgan foizlarni, shuningdek, boshqa to‘lovlarni muddatidan oldin to‘lanishini talab qilishini va undiruvni kreditni ta’minot bo‘yicha hamda qarz

oluvchi/birgalikda qarz oluvchining boshqa mol-mulkiga qaratishga haqliligi to‘g‘risida ogohlantirilganligini;

4. IPOTEKA KREDITIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN FOIZ HISOBLASH TARTIBI

4.1.Ipoteka krediti bo‘yicha foizlar Bank tomonidan Qarz oluvchining ssuda hisob varag‘idagi kredit summasi qoldig‘iga nisbatan har kuni, ushbu shartnomaning 2.3.-bandida belgilangan foiz stavkasida va kredit berilgan sanadan boshlab hisoblab boriladi. Ipoteka krediti, Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan ipoteka krediti ajratilganda – foiz stavka O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa – o‘zgarishsiz qoladi. Bunda, foiz stavkalarini mutanosib ravishda kamaytirish mexanizmi Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foizdan pasayganda qo‘llaniladi.

4.2.Mijoz tomonidan sotib olinayotgan uy-joy/xonadon garov sifatida taqdim etilgan taqdirda, kredit foiz stavka Iqtisodiyot va moliya Vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan belgilangan ipoteka kreditlarining eng ko‘p miqdoridan oshmagan miqdorda hamda belgilangan foizda qayta moliyalashtiriladi. Bunda, oldin to‘langan (yoki hisoblangan) foizlar qayta hisob-kitob qilinmaydi.

4.3. Ipoteka krediti bo‘yicha foiz kredit qoldig‘iga nisbatan har kuni hisoblab yoziladi mazkur shartnomaning ilovasi bo‘lgan to‘lov jadvaliga asosan belgilangan muddatlarda to‘lab boriladi.

4.4.Ipoteka krediti bo‘yicha to‘lovlar (asosiy qarz va foizi) annuitet to‘lovlar tartibi tatbiq etilgan holda to‘lov jadvaliga asosan to‘lab boriladi.

4.4.1. Kreditning asosiy qarzi va foizlarini to‘lash usuli — annuitet.

4.4.2. Yangi kreditni qaytarish jadvali Bank va Qarz oluvchi tomonidan tasdiqlanib, Qarz oluvchiga taqdim etilgach, avvalgi jadval o‘z kuchini yo‘qotadi va yangi jadval amal qiladi.

5. IPOTEKA KREDITI BO‘YICHA TA’MINOT TURI

5.1.Kreditning asosiy ta’minoti bo‘lib kredit hisobiga sotib olinishi rejalashtirilgan, Bank va Qarz oluvchi tomonidan o‘zaro _____ (_____) so‘mga baholangan, uy-joy/xonadon(ipoteka predmeti) hisoblanadi.

Kredit hisobiga sotib olinayotgan uy-joy foydalanishga topshirilgandan so‘ng 2 (ikki) kunda tegishli tartibda garovga olinadi hamda dastlabki mol-mulk garovdan chiqariladi.

Bunda, «Qarz oluvchining aybi bilan garov ro‘yxatdan o‘tkazish kechiksa, Bank kredit summasining har bir kechiktirilgan kun uchun 0,1% miqdorida penya hisoblash huquqiga ega. Qarz oluvchi garov ro‘yxatdan o‘tkazish uchun jalb qilingan uchinchi shaxslar xatti-harakatlari uchun javobgardir».

5.2.Kreditning asosiy ta’minoti kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/xonadon hisoblanadi. Qarz oluvchi hisobidan garov sug‘urtalanib, sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisi bankka taqdim etiladi. Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Bank o‘z mablag‘lari hisobidan birlamchi bozordan ko‘p kvartirali uylardan

xonadon sotib olishda sug‘urta qilish talab etilmaydi.

5.3.Kreditning asosiy ta’minoti kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/xonadon hisoblanadi.

5.4.Kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy/xonadon notarial yoki bank tomonidan garov shartnomasi tuziladi. Har ikkala holatda ham garov mulki bo‘yicha garov reyestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo‘yiladi.

5.5.Kreditning qaytaruvchanligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo‘yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) o‘z zimmasiga oladi.

5.6.Kreditning ta’minlanishini belgilovchi hujjatlar ushbu shartnomaning uzviy qismi hisoblanadi.

6. IPOTEKA KREDITI BERISH TARTIBI

6.1.Kredit **____ (_____) oy imtiyozli davr** bilan ____(_____) yil muddatga beriladi.

Uy-joy foydalanishga topshirilib, belgilangan tartibda garovga qo‘yilgandan so‘ng amaldagi Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan ipoteka shartlariga o‘zgaradi. (Ulushdor-jismoniy shaxslar uchun)

6.2.Bankning ipoteka krediti berish bo‘yicha majburiyati Qarz oluvchi tomonidan quyidagilar taqdim etilgandan keyin paydo bo‘ladi:

- Notarial tartibda amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha ko‘chmas mulk egasi tomonidan davlat xizmatlari markazi va notarial idorasidan olingan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi davlat reyestridan “ko‘chirma” ko‘chmas mulk davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinadi;
- uy-joy/xonadon qiymati va ipoteka krediti summasi o‘rtasidagi farq qarz oluvchini o‘z mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan bo‘lishi lozim;
- “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunchilikning qoidalariga rioya qilgan holda tuzilgan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan ipoteka shartlariga o‘zgartirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi.

-Kredit shartnomasiga o‘zgartirish kiritish yuzasidan qo‘shimcha kelishuv;

-Notarial tartibda amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha ko‘chmas mulk egasi tomonidan davlat xizmatlari markazi va notarial idorasidan olingan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi davlat reyestridan “ko‘chirma” ko‘chmas mulk davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinishi mumkin;

-“Ipoteka to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunchilikning qoidalariga rioya qilgan holda tuzilgan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma.

6.3.Uy-joy/xonadon sotib olish uchun mablag‘lar ssuda hisob varag‘idan uy-joy/xonadon sotuvchi/quruvchining hisob varag‘i yoki maxsus hisob varag‘iga pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

6.3.1. Kredit ajratish uchun zarur shartlar bajarilib, tegishli to‘lov hujjatlari

Bankka taqdim etilgandan so‘ng, mablag‘lar __ (____) ish kuni ichida uy-joy/xonadon sotuvchisi yoki quruvchining hisobvarag‘iga naqd pulsiz shaklda o‘tkaziladi.

7. IPOTEKA KREDITINI TO‘LASH TARTIBI

7.1. Ajratilgan kreditni hamda unga hisoblangan foiz(jarima, penya)lar bo‘yicha to‘lovlar shartnoma shartlariga asosan Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan naqd pulda yoki naqd pulsiz shaqlida, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiyalar va boshqa daromadlar hisobidan, shuningdek bank kartalari orqali amalga oshiriladi.

7.2. Kredit bo‘yicha qarzni to‘lash uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan yo‘naltiriladigan to‘lovlar quyidagi tartibda to‘lanadi:

– asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;

– joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;

– neustoyka (jarima, penya);

– kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

7.3. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit hamda unga hisoblangan foizlarni to‘lov jadvalida ko‘rsatilgan sanaga asosan oyma-oy to‘lab boradi. Agar to‘lash sanasi ish kuni hisoblanmaydigan kunga to‘g‘ri kelsa, u holda ushbu summalarni to‘lash keyingi ish kunidan kechikmay amalga oshirilishi kerak.

8. TOMONLARNING HUQUQLARI

8.1.Bankning huquqlari:

8.1.1.Ushbu shartnomaning 6.2.-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar Qarz oluvchining aybi bilan u imzolangan vaqtdan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun mobaynida taqdim etilmagan taqdirda Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

8.1.2. Bank kreditdan maqsadli foydalanish va ipoteka obyekti holatini har chorakda monitoring qiladi, shu jumladan joyiga chiqib tekshirishlar o‘tkazadi. Qarz oluvchi Bank vakillariga ipoteka obyektiga kirish imkoniyatini ta’minlashi shart. Monitoring jarayonida Bank asosiy qarzni va uning bo‘yicha foizlarni to‘lash jadvallariga, garovga qo‘yilgan mol-mulkdan foydalanish va uni saqlash qoidalariga, ipoteka predmetining noqonuniy begonalashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslikka rioya etilishini nazorat qiladi.

8.1.3.Monitoring davomida imtiyozli shartlar asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari bankning amaldagi ipoteka krediti ajratish tartibiga zid ravishda ajratilganligi aniqlangan holatlarda *(yangi tartib doirasida ikkinchi marotaba kreditlashga yo‘l qo‘yilganda),* bir tomonlama foiz bankning o‘z mablag‘lari hisobidan ajratiladigan foiz stavkaga o‘zgartiriladi.

8.1.4.Ipoteka oluvchining ipoteka bilan ta’minlangan majburiyat bo‘yicha o‘z huquqlarini garov xati bilan tasdiqlanishini ipotekaga qo‘yuvchidan talab qilish huquqiga ega.

8.1.5.Majburiyatlarni bajarmaslik holati boshlanganda Bank o‘z xohishiga ko‘ra quyidagi harakatlardan istalganini amalga oshirishi mumkin:

- Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati boshlanganligi to‘g‘risidagi yozma bildirishnomani uni bartaraf etish uchun muddatni belgilagan holda yuborish;
- ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi qo‘shimcha ravishda ta’minlanishini talab qilish;
- shartnoma amal qilayotgan davrda qo‘shimcha hujjatlar so‘rash huquqiga ega ekanligini;
- bank qo‘pol qoidabuzarlik, jumladan, 12 oy ichida ikki marta 30 kundan ortiq to‘lovlarni kechiktirishda kreditni muddatidan oldin talab qilish huquqiga ega;
- Qarz oluvchidan kreditning hammasini yoki uning bir qismini ushbu shartnomada belgilangan tartibda muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;
- ta’minlash shartnomalarida belgilangan tartibda, kredit bo‘yicha undiruvni ta’minotning barchasiga qaratish;
- ushbu shartnomani mazkur shartnomada belgilangan tartibda bekor qilish;
- kredit va unga hisoblangan foizlar o‘z muddatida to‘lanmagan taqdirda kredit foiz stavkasini ko‘paytirish;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning amaldagi ish joyiga kredit to‘lovlarini oylik ish haqidan to‘lab borish yuzasidan murojaat qilish;
- ushbu shartnomaga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa har qanday huquqlardan foydalanish.

8.1.6.Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlaridan, shuningdek, kreditni qaytarilishini ta’minlash bilan bog‘liq huquq va majburiyatlaridan, buning uchun bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning oldindan roziligisiz, lekin 30 kalendar kunlik yozma xabarnoma bilan shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga o‘tkazish huquqiga ega.

8.1.7. Qarz oluvchi kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamagan yoki to‘liq to‘lamagan taqdirda bank tomonidan ushbu to‘lovlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchi (shuningdek kafillik bergan shaxs)ning oylik ish haqidan, bank kartasidan, omonatdagi yoki depozitdagi har qanday mablag‘lar hisobidan hamda boshqa banklardagi hisob raqamlaridan akseptsiz undirib olishga va ish joyiga qo‘ng‘iroq yoki yozma murojaat qilishga haqli.

8.1.8. O‘zaro muzokaralarni (bayonnoma shaqlida, telefon qo‘ng‘iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

Qarz oluvchi Bankning roziligisiz ushbu shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o‘tkazishga haqli emas.

8.1.9. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa huquqlar.

8.2.Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning huquqlari:

- ushbu kreditdan foydalanish bo‘yicha “Bank”dan axborot olish;
- shartnoma loyihasini tanishib chiqish uchun o‘zi bilan olib ketish;
- Qarz oluvchi kredit bo‘yicha qarzdorlikni istalgan vaqtda jarima (penya) undirilmasdan qisman yoki to‘liq muddatidan oldin so‘ndirish huquqiga ega;

• Qarz oluvchi kredit mablag‘lari haqiqatda berilguniga qadar Bankni xabardor qilish orqali kredit olishdan hech qanday to‘lovlarsiz voz kechish huquqiga ega;

8.2.1.Olingan kreditni to‘liq qaytargan va uning bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarni to‘lagan holda Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

8.2.2. Qarzdor moliyaviy qiyinchilik, murakkab hayotiy vaziyat yoki fors-major holatlari tufayli kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishga qiynalganda, kredit shartnomasi shartlarini o‘zgartirish (restrukturizatsiya) to‘g‘risida Bankka ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, mazkur ariza Bankning ichki tartibiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

8.2.3. Qarz oluvchi Bankka ariza, shikoyat yoki taklif bilan og‘zaki, yozma yoki elektron tarzda murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, Bank murojaat kelib tushgan kundan e’tiboran, qo‘shimcha o‘rganish talab etilmasa 15 kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish/tekshirish talab etilsa 1 oygacha muddatda uni ko‘rib chiqadi va bunda qo‘shimcha muddat talab etilishi to‘g‘risida Qarz oluvchiga xabarnoma yuboradi.

9. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

9.1.Bankning majburiyatlari:

9.1.1.Ipoteka krediti berish uchun Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) tomonidan barcha zarur shartlar bajarilgach ushbu shartnoma shartlariga rioya qilgan holda kredit ajratish.

9.1.2.Kredit mablag‘lari va boshlang‘ich badalni ushbu shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlar uchun Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasiga(arizasi) asosan o‘tkazib berish.

9.1.3.Agar, kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so‘ng kredit shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi o‘zgarganda, bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, qarz oluvchiga taqdim qilish.

9.1.4.Shartnoma bo‘yicha kredit oluvchidan majburiyatlari bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so‘rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo‘llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantirish;

9.1.5.Shartnoma bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, kredit oluvchi bilan har qanday aloqa bog‘lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, kredit oluvchiga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

9.1.6.Garov predmeti sifatida qo‘yilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undirilishi mumkinligi va garov predmeti ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinishini(qonun hujjatlarida nazardan tutilgan hollar bundan mustasno) qarz oluvchiga ma’lum qiladi.

9.1.7.Kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag‘ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirish hamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

9.1.8.Kredit oluvchi shartnoma bo‘yicha barcha to‘lov majburiyatini to‘liq

bajargan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo‘yicha garov mulkini taqiqdan chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan bankning huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reyestridan o‘chirish;

9.1.9.Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Kredit oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

9.1.10.Kredit shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 9.1.7.-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va kredit oluvchiga taqdim etish. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

9.1.11.Shartnoma bekor qilingan taqdirda, bank to‘lab berilgan subsidiyalarni qarz oluvchilardan belgilangan tartibda qaytarish choralarini ko‘radi.

9.1.12. Bankning dasturiy nosozliklari Qarz oluvchining majburiyatlarini oshirmasligi va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Aniqlangan nosozliklar Bank tomonidan zudlik bilan bartaraf etiladi hamda ularning oqibatlari mijozga zarar yetkazmasligi ta’minlanadi.

9.2.Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlari:

9.2.1.Ushbu shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kunigacha bo‘lgan muddatda quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirish, shu jumladan:

- sotib olinayotgan uy-joy/xonadon oldi-sotdi shartnomasini notarial tartibda rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- ipoteka to‘g‘risidagi shartnomani notarial tartibda rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- kreditlash muddatiga ipoteka predmetini yo‘qolish va shikastlanish tavakkalchiliklaridan bank foydasiga sug‘urta qilinganligi to‘g‘risida sug‘urta shartnomasi, sug‘urta polisi va sug‘urta mukofoti to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;

9.2.2. 8.1.4. bandi shartiga asosan, o‘z navbatida, ipotekaga qo‘yuvchining garov xatini tuzish majburiyatini oladi. Bunda, Qarz oluvchi garov xatini 30 (o‘ttiz) kalendar kunigacha bo‘lgan muddatda tuzmasa bank kredit summasining 10 foiz miqdorida jarima solish huquqiga ega. Jarimani to‘lash, majburiyatni bajarishdan ozod etmaydi.

9.2.3.Mazkur shartnomaning 6.3. bandi shartiga muvofiq berilgan kreditni o‘zlashtirish.

9.2.4.Kreditni va uning bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarni ilova qilinayotgan to‘lovlar jadvaliga muvofiq har oyda to‘lagan holda qaytarish.

9.2.5.Bank vakillariga kreditni monitoringini amalga oshirish va kreditdan maqsadli foydalanilishini tekshirish maqsadida, garovga qo‘yilgan mulkni hamda kreditga taalluqli bo‘lgan har qanday boshqa mol-mulkni mavjudligini borib ko‘rish, holatini, saqlanish sharoitlarini va foydalanilishini tekshirish imkoniyatini ta’minlash.

9.2.6.Bank talabiga binoan ushbu shartnoma amal qiladigan butun davr mobaynida, Bankni qoniqtiradigan shakl va mazmun bo‘yicha Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchilarning daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etish.

9.2.7. 5 (besh) kun mobaynida Bankka yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki

ismidagi va ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan boshqa holatlardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lumotni taqdim etish.

9.2.8. Ushbu shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligisiz, shartlari ushbu shartnoma bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatiga nisbatan ustuvor talab qilish huquqiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchinchi tomonlarning kreditlarini va/yoki qarzlarini jalb qilmasligi kerak.

9.2.9. O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga doimiy yashash uchun ketgan taqdirda kreditni va uning bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarni muddatidan oldin to‘lash.

9.2.10. Uy-joy/xonadonni tegishli davlat organlari tomonidan olib qo‘yilgan yoki musodara qilingan hollarda kreditni va uning bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarni muddatidan oldin to‘lash.

9.2.11. Qarz oluvchi ipoteka predmetini lozim darajada asrash uchun, shu jumladan uni o‘z vaqtida joriy ta’mirlashni o‘tkazish, undan oqilona foydalanish hamda uni boshqa shaxslarning qonunga xilof tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun o‘z hisobidan barcha zarur choralarni ko‘rishi shart.

9.2.12. Qarz oluvchi ipoteka predmetining yo‘q bo‘lib ketishi, shikastlanishi, buzilishi yoki holati yomonlashuviga olib keluvchi har qanday xavf-xatar, shuningdek ipotekaga oluvchining ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha huquqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday holat to‘g‘risida ipotekaga oluvchini o‘z vaqtida yozma shaklda xabardor etishi kerak.

9.2.13. Kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamagan yoki to‘liq to‘lamagan taqdirda bank tomonidan ushbu to‘lovlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchi (shuningdek kafillik bergan shaxs)ning oylik ish haqidan, bank kartasidan, omonatdagi yoki depozitdagi har qanday mablag‘lar hisobidan hamda boshqa banklardagi hisob raqamlaridan akseptsiz undirib olinishiga qarshilik ko‘rsatmaydi.

10. JAVOBGARLIK

10.1.Taraflar ushbu shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

10.2.To‘lov hujjatlariga asosan kredit summasi o‘z muddatida o‘tkazib berilmaganda, bank qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismiga 0,2 foiz miqdorda penya to‘laydi. Biroq, bunda penyaning umumiy summasi o‘tkazib berilmagan summaning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim;

10.3.Kredit asosiy qarzi bo‘yicha muddati o‘tgan qismi o‘z vaqtida qaytarilmaganda, mijoz kredit qarzdorligining har bir kechiktirilgan kun uchun milliy valyutada ajratilgan kreditlar uchun amaldagi foiz stavkasining 2 barobari hamda xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar uchun 1,5 barobari miqdorida oshirilgan stavkada foiz to‘laydi;

10.4.Kredit uchun hisoblangan foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qismi o‘z vaqtida qaytarilmaganda, mijoz kredit qarzdorligining har bir kechiktirilgan kun uchun milliy valyutada ajratilgan kreditlar uchun 0,2 foiz miqdorida hamda xorijiy

valyutada ajratilgan kreditlar uchun 0,1 foiz miqdorida penya hisoblanadi ammo muddati o‘tgan foiz qarzdorligi summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi;

10.5.Bank jarima va penyalarni garovga qo‘yilgan mulk yoki boshqa ta’minot hisobidan, shu jumladan mijoz va birgalikda qarz oluvchining oylik ish haqidan, plastik kartasidagi, omonatidagi yoki depozitidagi har qanday mablag‘lar hisobidan hamda boshqa banklardagi hisob raqamlaridan ularning ruxsatisiz (akseptsiz) undirib olishga haqli.

11. KREDIT QARZDORLIGINI UNDIRISHNI TA’MINOTGA QARATISH

11.1.Tomonlar shunga kelishdilarki, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlari bajarilmagan taqdirda Bank o‘z talablarini, undirishni garov (ipoteka) predmetiga qaratish uchun asoslar vujudga kelgandan keyin, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) va Bank o‘rtasida tuzilgan notarial tasdiqlangan bitim asosida suddan tashqari tartibda qondiradi.

11.2. Bank undirishni ushbu shartnoma shartlarida nazarda tutilgan, garov bilan ta’minlangan majburiyatning bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi tufayli kelib chiqqan talablarni bartaraf etish maqsadida mol-mulk hisobiga qondirish uchun majburiyatlarni ta’minlash sifatida garovga qo‘yilgan mol-mulkka sud orqali qaratishi mumkin.

11.3.Majburiyatni ta’minlash uchun garovga qo‘yilgan ipoteka predmeti hisoblanadigan mol-mulkka undiruvni muddatidan shartnomada ko‘rsatilgan muddatdan oldin qaratish Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan to‘lovlarni amalga oshirish muddatlari muntazam ravishda, ya’ni, o‘n ikki oy mobaynida uch martadan ko‘p qo‘pol buzilgan taqdirda yoki navbatdagi oylik to‘lovni 30 kalendar kunidan kechiktirib to‘lasa amalga oshirilishi mumkin.

11.4.O‘zbekiston Respublikasi "Ipoteka to‘g‘risida"gi qonunining 23, 26 va 28-moddalarida nazarda tutilgan holatlarda (Ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha garovga qo‘yilgan mol-mulkning asralishini lozim darajada ta’minlamaganlik, Garovga qo‘yilgan mol-mulkni tasarrufdan chiqarish to‘g‘risidagi qoidalarni buzish, Garovga qo‘yilgan mol-mulkning majburiy ravishda olib qo‘yilishi) Bank ipoteka bilan ta’minlangan majburiyatlarning muddatidan oldin bajarilishini talab qilishga, ushbu talab bajarilmagan taqdirda esa - undirishni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishga haqlidir.

11.5.Agar garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotishda olingan summa Bank talabini qoplash uchun yetarli bo‘lmasa, Bank yetishmagan summani Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning boshqa mol-mulkidan olish huquqiga ega.

12. ALOHIDA SHARTLAR

12.1.Bank o‘z xohishiga ko‘ra ushbu shartnoma bo‘yicha o‘zida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga nisbatan mavjud bo‘lgan huquqlardan shartnoma shartlarida belgilanganlardan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlari asosida shartnoma amal qilib turgan davrda foydalanishi mumkin. Qarz beruvchining o‘ziga tegishli huquqlarni qo‘llamaslik yoxud qisman qo‘llashi ushbu huquqlardan voz kechilishini bildirmaydi va ular kelgusida huquqiy oqibatning kelib chiqishi natijasiga qarab istalgan vaqtda foydalanishi mumkin.

13. QO‘SHIMCHA SHARTLAR

13.1.Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) uy-joy/xonadonni o‘zboshimchalik bilan qonun hujjatlarida belgilanganlarga zid ravishda qayta qurganlik yoki qayta rejalashtirganlik uchun shunday munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi normativ huquqiy-hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar va ushbu uy-joy/xonadonni o‘z hisobidan ilgarigi holatiga keltirish majburiyatini oladilar.

13.2.Uy-joy/xonadonni sotishga, ipoteka predmeti manzili bo‘yicha uchinchi shaxslarni ro‘yxatga qo‘yishga mazkur shartnoma amal qilib turgan davrda qarz beruvchining roziligi asosida yo‘l qo‘yilishi mumkin.

13.3.Uy-joy/xonadonnini ijaraga, undan tekin foydalanishga berish faqatgina Bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

13.4.Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan boshlang‘ich badalning bir qismini qoplash uchun subsidiya mablag‘lari 30 kun ichida bankka o‘tkazib berilmaganda qarz oluvchiga ipoteka krediti shartnomasini rasmiylashtirish vaqtincha to‘xtatib turiladi.

14. FORS-MAJOR HOLATLARI

14.1.Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko‘ra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo‘lmagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

14.2.Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlariga Tomon ta’sir ko‘rsatishi va ularning vujudga kelishi uchun javobgar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, masalan: zilzila, suv toshqini, yong‘in, shuningdek ish tashlash, Hukumat hujjatlari yoki davlat organlari qarorlari, ushbu shartnoma predmetini bajarishga to‘sqinlik qiluvchi istalgan tusdagi harbiy harakatlar kiradi.

14.3. Qarz oluvchi fors-major boshlangani haqida 3 kun ichida Bankni xabardor qilishi va 5 kun ichida tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi shart. Tomonlar majburiyatlari 30 kungacha to‘xtatilishi mumkin, so‘ngra shartnoma shartlari qayta ko‘rib chiqiladi.

14.4.Agar shartnomaning ushbu bo‘limida ko‘rsatilgan yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari uch oydan ko‘p vaqt davom etsa, u holda har qaysi Tomon boshqa Tomonni xabardor qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Tomonlar belgilangan tartibda ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo‘yicha uzil-kesil hisob-kitobni amalga oshiradilar.

15. Korrupsiyaga qarshi shartlar

15.1.Mazkur kredit shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta’sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho buyumlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

15.2.Ushbu kredit shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

15.3.Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarini buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lganligini ishonchli, tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo‘ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

15.4.Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish to‘g‘risida yozma bildirishnoma yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

16. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

16.1.Ushbu shartnoma tomonlar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

17. NIZOLARNI HAL ETISH

17.1.Kelishmovchiliklar va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar paydo bo‘lgan hollarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ularni muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal etadilar. Tomonlar muzokara natijasida kelishuvga erishmagan taqdirda nizo o‘rnatilgan tartibda bank joylashgan hudud bo‘yicha tegishli sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

18. YAKUNIY QOIDALAR

18.1.Ushbu shartnoma Qarz oluvchining uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnomalaridan yuridik jihatdan mustaqil bo‘lib, Qarzdor uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnoma qoidalariga asoslanib Bankka e’tiroz bildirmaydi.

18.2.Har bir taraf ushbu shartnoma predmeti va shartlariga bog‘liq ma’lumotlarning maxfiyligini saqlaydilar. Ushbu ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ko‘ra, tegishli organlarga berilishi, bundan mustasno.

18.3.Ushbu shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuviga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

18.4.Ushbu shartnomaga barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma shaklda, tomonlar imzolagan qo‘shimcha shartnomalar tarzida rasmiylashtiriladi.

18.5.Xabarnomalar ro‘yxatdan o‘tgan xat yoki tasdiq bilan elektron pochta orqali jo‘natiladi va jo‘natilgandan keyin 5 kalendar kun o‘tgach yetkazilgan deb hisoblanadi.

18.5.Ushbu shartnoma tomonlardan har biri uchun, bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 3 nusxada tuzilgan.

19. Tomonlarning manzillari, rekvizitlari va imzolari

BANK:

Agrobank”ATB_____

Pochta manzili:

INN:

Tel/faks: _____

Bank filiali boshqaruvchisi: _____ **imzo**

Bosh buxgalter: _____ **imzo**

M.O‘.

Ushbu shartnoma huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Yuristkonsult: _____ **imzo**

QARZ OLUVCHI:

F.I.SH_____

Yashash manzili: _____

Tel/faks: _____

Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun:

PINFL:

Pasport seriyasi va raqami _____

Kim tomonidan berilgan joyi va sanasi _____

_____ **imzo**

BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI:

F.I.SH_____

Yashash manzili

Tel/faks: _____

Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun:

PINFL:

Pasport seriyasi va raqami _____

Kim tomonidan berilgan joyi va sanasi _____

_____imzo

BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI:

F.I.SH_____

Yashash manzili:

Tel/faks: _____

Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun:

PINFL:

Pasport seriyasi va raqami_____

Kim tomonidan berilgan joyi va sanasi _____

_____imzo